



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI

Mamlakatimizni dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan o‘rin egallashi yo‘lida olib borilayotgan islohotlarining barchasi inson mafaatlarini yanada ko‘tarishga qaratilgan. Sog’liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o‘rni va maqomini kuchaytirish shular jumlasidandir. Bu borada davlat-xususiy sherikchilik asosida xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish, sog’lom raqobatni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Namangan viloyatida 2019- yilda 116 ta sog’liqni saqlash muassasalari faoliyat ko‘rsatdi. Ulardagi bemorlar uchun mavjud o‘rinlar soni 14100 tani tashkil etdi. Yil davomida shifoxona muassasalarida 537,2 ming nafar bemorlar davolangan.

Ma’lumot uchun:

Shifohona – tibbiy yordam ko’rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo’ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega bo’lgan, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.


Sifoxona muassasalarida zaruriy anjomlar bilan jixozlangan va band bo’lishi yoki band bo’lmasligidan qat’iy nazar, kechayu-kunduz davomida bemorlarni qabul qilish uchun tayyor turgan ***shifoxona o‘rinlari*** hisobga olinadi.

**2019- yilda Namangan viloyati shifoxona muassasalarining
asosiy ko'rsatkichlari, (birlik)**

	Shifoxonalar soni	Davolangan bemorlar soni	O'rinlar soni
Viloyat bo'yicha	116	537233	14100
Namangan sh	45	201239	6824
tumanlar:			
Mingbuloq	3	20417	442
Kosonsoy	14	33883	735
Namangan	4	26894	496
Norin	1	20070	285
Pop	7	37864	751
To'raqo'rg'on	6	39216	944
Uychi	6	28507	645
Uchqo'rg'on	8	30168	558
Chortoq	5	33898	690
Chust	11	33656	1065
Yangiqo'rg'on	6	31421	665

2019- yil yakuni bo'yicha Namangan viloyatidagi shifoxona muassasalarida jami 5284 nafar oily toifali shifokorlar xizmat qilgan. Jami shifokorlarning 43,9 % ini ayollar tashkil qiladi.

2019- yilda Namangan viloyatidagi shifoxona muassasalaridagi shifokorlar soni (birlik)




Shifokorlarning umumiy soniga - sogʼliqni saqlash muassasalarida, sanatoriy-kurort muassasalarida, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash muassasalarida, aholini ijtimoiy muhofazasida, ilmiy izlanish institutlarida, sogʼliqni saqlash boshqaruv organi apparatida ishlayotgan oily tibbiyot maʼlumotiga ega barcha mutaxassislar kiradi.



Namangan viloyatida 2019- yilda sog'liqni saqlash sohasida 82 ta kichik biznes sub'ektlari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu muassasalardagi o'rinnar soni 4491 nafar bemorni qabul qilishga mo'jallangan. Jami shifokorlar soni 624 nafarni, o'rta tibbiyot xodimlari soni 873 nafardan iborat.

Aholini tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganlik dinamikasi, (10 000 aholiga)

	Shifokorlar	O'rta tibbiyot xodimlari
2016- yil	5096	26393
2017- yil	5157	27790
2018- yil	5299	29127
2019- yil	5284	30077

2019- yilda Namangan viloyati shifoxonalarida 30077 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat qilgan. Ularning 27190 nafarini yoki (90,4 %) ni ayollar tashkil etgan. Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korkorxona va mikrofirmalarda jami 873 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat qilgan, ularning 750 nafari ayollardan iborat.

**2019- yilda Namangan viloyati shifoxonalaridagi o‘rta tibbiyot xodimlari soni,
(birlik)**






Ma'lumot uchun:

O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga -sog'liqni saqlash, sanatoriy-kurort muassasalarida, go'daklar uylarida va boshqa muassasalarda ishlayotgan o'rta maxsus tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan barcha shaxslar kiradi.

2019- yilda Namangan viloyatida bo'yicha 333 ta ambulatoriya- poliklinika muassasalari faoliyat olib borgan. Ulardan 75 tasini qishloq vrachlik punktlari tashkil etadi. Bir smenada qatnovlar soni quvvati 24013 ta bemorlarni qabul qilishga mo'ljallangan.



Ma'lumot uchun:

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soniga -aholining ushbu muassasalarga qatnab yoki shifokorlarning uylarga tashtif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalar kiradi. Ular qatoriga mustaqil poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, QVP lari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslaxatxonalarini kiradi

2019- yilda Namangan viloyati bo‘yicha 139 ta tez tibbiy yordam stansiyalari faoliyat olib borgan. Yil davomida chaqiriqlar soni 1081,1 marotaba bo‘lib, jami 1440,6 ming nafar bemorlarga tibbiy yordam xizmati korsatilgan.



2019- yil davomida asosiy sinflari bo‘yicha 946,7 ming nafar aholining turli kasalliklarga chalinishi (birinchi marta tashxisi aniqlangan holatlar soni) kuzatildi. Aholi o‘rtasida jami kasallikka chalingan bemorlar ichidan nafas olish a’zolari kasalliklari bilan og’riganlar 23,5 % ni, qon va qon yaratish a’zolari kasalliklari va immun mexanizmiga ta’sir etuvchi ayrim buzilishlar tashxisi bilan kasallanganlar 3,3 % ni, ovqat xazm qilish a’zolari bilan kasallangan bemorlar 9,3 % ni, jarohatlanish, zaharlanishlar va ayrim tashqi sabablar bilan bog’liq asoratlar kasalliklari bo‘yicha bemorlar 16 % ni, siydik-tanosil tizimi kasalliklari bo‘yicha kasallangan bemorlar 7,0 % ni, qon aylanishi tizimi bilan og’rigan bemorlar 3,3 % ni va qolgan 37, % ni boshqa turdagи kasalliklarga chalingan bemorlar tashkil etgan.

Aholining kasallanishi - yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispenser kuzatuvi ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni

2019- yilda aholini kasalliklarga chalinishi, (% da)

